

## ISH IZLASH VA ISHGA JOYLASHISH

Ish izlaganda Sizga Mehnat va bandlik federal xizmaining umumrossiya bazasidan foydalanishni maslahat beramiz – Rossiyada ishlash: [trudvsem.ru](http://trudvsem.ru) va Leningrad viloyatidagi bo'sh ish o'rinlari banki: [www.czn47.ru](http://www.czn47.ru).

Sizga ishga joylashishda oddiy maslahatlar yordam beradi:

- oshkora ishlang: ishlash uchun patent jismoniy shaxsda ham, tashkilotda ham ishga joylashish huquqini beradi, lekin Sizing ish beruvchi bilan mehnat munosabatlaringiz albatta mehnat shartnomasi bilan tasdiqlanishi zarur!

2020-yil 05 avgustidan boshlab kunduzi o'qiyotgan xorijiy talabalar o'qishdan bo'sh paytlarida patentsiz va ishlash uchun ijozat olmasdan ishlashlari mumkin. Ish beruvchi bilan mehnat yoki fuqarolik-huquqiy shartnomasi tuzish uchun ulardan davlat akkreditatsiyasiga ega bo'lgan oliy o'quv yurti yo kollejdari Leningrad viloyatida o'qishi tasdiqlangan ma'lumot taqdim etish talab etiladi.

Rossiyada 135 ta malakali mutaxassislar kasbidan iborat ro'yxat amaliy qiladi, bu kasb egalari agar RFda 1 yildan ko'p rasmiy ish stajiga ega bo'lishsa, ular soddalashtirilgan tartibda Rossiya fuqaroligini olishlari mumkin. Mazkur kasblar ro'yxati bilan quyidagi saytda barafsil tanishish mumkin: [www.garant.ru/products/ipo/prime/doc/73476436/](http://www.garant.ru/products/ipo/prime/doc/73476436/)

- ish beruvchingizni biling: ishlayotgan tashkilotingiz nomini va manzilini, rahbaringiz bilan muloqotlar (familiyasi, ismi, telefoni); agar Siz o'z huquqlaringizni himoya qiladigan va ish haqingizni undiradigan bo'lsangiz bu axborot foyda beradi;
- vositachilarga murojaat etmang: ehtiyot bo'ling– vositachilar Sizdan tekin ishchi kuchi sifatida foydalanishlari mumkin.

Yollanma mehnat (ish beruvchining o'z ishchilarini mehnat shartnomalarini rasmiylashtirmasdan boshqa tashkilotlarga jo'natishi) Rossiyada taqiqlangan. Faqat xususiy bandlik agentligi sifatida ro'yxatga olingan firmalar o'z ishchilari mehnatini boshqa tashkilotlar yoki jismoniy shaxslarga taqdim etish huquqiga ega:

- chet ellik fuqaro bilan mehnat shartnomasida uchinchi tomonda ishlash imkoniyatini ko'rsatish;
  - ishchi bilan uni uchinchi tomonga ishlash uchun yo'llayotganda qo'shimcha bitim tuzish.
- Agar Siz xususiy bandlik agentligiga murojaat etgan bo'lsangiz – albatta bu shartlar Sizing mehnat shartnomangizda ko'rsatilishini nazorat qiling.

Qonuniy ishlayotgan barcha xususiy bandlik agentliklari Posstrud reestriga kiritilgan – [rostrud.gov.ru/opendata/7712345678-chaz](http://rostrud.gov.ru/opendata/7712345678-chaz). U erda Sizing ish beruvchingiz bor-yo'qligini albatta tekshiring.

- ish beruvchi bilan shartnoma tuzing: ish beruvchi Siz bilan shartnoma tuzishi va Sizga bu shartnomaning nusxasini berishi SHART. Mehnat shartnomalari va ishga taalluqli boshqa hujjatlar namunalarini quyidagi saytdan topish mumkin: [онлайнинспекция.рф/documents](http://онлайнинспекция.рф/documents)
  - ish haqi miqdori va uni to'lash shartlarini aniq gaplashib oling: Sizga aynan qancha va qaysi ish uchun to'lashlarni bilishingiz zarur. Ish haqi miqdori mehnat shartnomasida ko'rsatilishi zarur. Pulni Sizing nomingizga ochilgan maxsus bank kartasidan, yoki shaxsan buxgalteriyadan imzo qo'yib olishingiz zarur. Buxgalteriyada Sizga hisob-kitob varaqasi berishlari shart. Har qanday pullik munosabatlar hujjatlashtirilishi zarur. Agar Sizdan pul qarz bo'lishsa, ish beruvchidan tilxat talab qiling, uni o'zingizda saqlang.
  - nimani imzolayotgan bo'lsangiz diqqat bilan o'qing, Sizga uning nusxasini berishni talab qiling. Agar Siz ularning mazmuni va shartlari bilan rozi bo'lmasangiz, shartnomalar, bildiruvlar va boshqa hujjatlarni imzolamaslik huquqiga egasiz;
  - ish beruvchiga hujjatlaringizni saqlash uchun bermang: Sizdan boshqa hech kim passport, ishlash uchun ijozat, sug'urta, Sizdagi mehnat shartnomasi nusxasi va boshqa hujjatlarni saqlashi, shuningdek Sizing harakat erkinligingizni cheklashi, telefoningizni tortib olishi va hokazolarni qilishi mumkin emas. Paspportni musodara qilish va ozodlikni cheklash – jinoyat: bunday holda polisiyaga murojaat qiling!
  - yordam uchun murojaat qiling: polisiyaga, Prokuraturaga, Davlat mehnat nazoratiga, sudga, Inson huquqlari vakiliga, ijtimoiy tashkilotlarga.
- Ish haqi berishni ushlab turilgan holatda Sizga tavsiya etamiz:
- ish haqini berish 15 kundan ortiq muddatga kechiktirilgan holatda, Siz RF MK 142 m. 2 q.ga ko'ra ish beruvchiga ish haqi berilmagani sababli ishni to'xtatish borasida yozma ariza berish huquqiga egasiz;
  - ish beruvchiga RF MKning 62m. tartibida ishga aloqasi bo'lgan hujjatlar, shu jumladan, hisob-kitob varaqalari nusxalarini berish borasida yozma murojaat qiling;
  - agar Siz 3 ish kuni davomida hujjatlar nusxasini olmasangiz, Davlat mehnat nazoratiga ish beruvchi borasida ariza yozing;

- ish beruvchiga ish haqidan qarzni to'lash borasida shikoyat bilan murojaat qiling. Shikoyat kollektiv bo'lishi mumkin. Shikoyatni ko'rib chiqish paytida ish beruvchi Sizni ishdan bo'shatish huquqiga ega emas.

Arisa berayotgan paytda Sizing qo'lingizda arisaning olingan sanasi borasida ish beruvchi imzosi va muhri qo'yilgan nusxasi qolishi muhimdir.

Agar ish beruvchi shikoyatga javob bermasa, prokuratura yoki sudga shikoyat bilan murojaat etish zarur. Prokuratura mehnat huquqlari buzilgan xodimlar manfaati yuzasidan sudga murojaat qilish, shuningdek, ish beruvchini tekshirish, uni ma'muriy javobgarlikka tortish huquqiga ega.

RF MH Kodeksining 5.27 moddasiga muvofiq, mehnat qonunchiligining har bir buzilishi, jumladan, mehnat shartnomasini rasmiylashtirmasdan ishga qo'yish, ish haqini to'lmaslik yoki mehnat shartnomasini rasmiylashtirishda qonunbuzarlikka yo'l qo'ygani uchun ish beruvchi 30 mingdan 70 ming rublgacha miqdorda jarimaga tortilishi mumkin.

Kollektiv murojaat va arizalar bir kishining murojaatiga qaraganda ko'proq samara beradi. Muhojirlar mehnat huquqining ommaviy buzilishlari haqida ish beruvchi joylashgan erdagi davlat va mahalliy maqomotlariga xabar berish zarur.

Ish beruvchi shuningdek mehnatni himoya qilish sohasidagi qonunchilikni bajarishi zarur – agar Sizing ishingizdagi mehnat sharoitlari hayot va salomatlik uchun xavfli bo'lsa, tezda ishni to'xtatish va zudlik bilan Tergov komitetiga shikoyat qilish zarur.

Leningrad viloyati Davlat mehnat nazorati :

[git47.rostrud.gov.ru](http://git47.rostrud.gov.ru) , 8 (812) 612-70-34

Leningrad viloyati Mehnat va aholi bandligi komiteti :

[job.lenobl.ru/ru](http://job.lenobl.ru/ru) , 8 (812) 539-49-11

Leningrad viloyati aholi bandligi markazi

[www.czn47.ru](http://www.czn47.ru) , 8 (812) 630-47-47, 8 (800) 350-47-47

Leningrad viloyati Prokuraturasi

[https://epp.genproc.gov.ru/web/proc\\_47](https://epp.genproc.gov.ru/web/proc_47) Санкт-Петербург, ул. Торжковская, 4

+7 (812) 429 77 55

## Bepul huquqiy yordam

BF «PSP-fond»

sayt: [psp-f.org](http://psp-f.org)

tel.: 8 (812) 337-57-85, 8 (953) 141-31-09

## Манбаъҳои муҳими иттилоотӣ

migrantlenobl – Mehnat muhojirlari va ularning oila a'zolari uchun «Leningrad viloyatiga xush kelibsiz!» mobil ilovasi va sayti

migrussia.ru – «Muhojirlar va muhojirlik: axborot portali»: muhojirlar va ular bilan ishlayotgan mutaxassislariga moslashish va huquqiy qo'llashga oid maslahatlar.



Комитет по местному самоуправлению,  
международным и  
межконфессиональным отношениям  
Ленинградской области



migrantlenobl

## MUHOJIR MAKTABI

# Leningrad viloyatiga xush kelibsiz!

## Muhojirlik qaydi Patent olish Ishga joylashish

## Mehnat muhojirlariga maslahatlar

2020

Авторы-составители: Якимов А.Н., Хлызова Д.В.

Редактор: Панич Б.Л.

Буклет «Миграционный учет, получение патента, устройство на работу. Советы трудовым мигрантам Ленинградской области» (на узбекском языке).

Разработан БФ «ПСП-фонд» в рамках проекта «Школа мигранта. Добро пожаловать в Ленинградскую область!» Комитета по местному самоуправлению, международным и межконфессиональным отношениям Ленинградской области.



БФ «ПСП-ФОНД»

5

6

7

## MUHOJIRLIK QAYDIGA QO'YISH

Chet ellik fuqaro kelgan joyida **7 ish kunidan kechiktirmasdan muhojirlik qaydiga qo'yishi** shart; Belarus Respublikasi fuqarolari – **90 kun**, EOIning boshqa a'zo-davlatlari (Armaniston, Qozog'iston, Qirg'iziston) – **30 kun**; Tojikiston – **15 kun**.

**Muhojirlik qaydiga Siz yashaydigan manzil bo'yicha qo'yilish zarur.** Kirish qoidalarini va turish rejimini buzgan chet ellik fuqaro 5 mingdan 7 mingga **jarima** to'lashi, balki Rossiyadan chiqarib yuborilib, 5 yilga kirishi taqiqlanishi mumkin.

Chet ellik fuqaroni muhojirlik qaydiga qo'yishni **qabul qiluvchi tomon** amalga oshiradi, bu Sizga turar-joy bergan ham bo'lishi mumkin:

- Leningrad viloyatida doimiy ro'yxatga olingan RF fuqarosi;
  - Leningrad viloyatida doimiy yashovchi chet ellik fuqaro;
  - chet ellik fuqaro – turar-joy egasi;
  - huquqiy shaxs: tashkilot-ish beruvchi, mehmonxona.
- Muhojirlik qaydiga qo'yish uchun murojaat etish mumkin:
- RF IIV BB Muhojirlik masalalari Sankt-Peterburg va Leningrad viloyati bo'yicha boshqarmasi hududiy bo'limlariga;
  - davlat xizmatlari ko'rsatish ko'p vazifali markaziga (KFM-MFS).
- Sizga quyidagi hujjatlar va ularning nusxalari kerak bo'ladi:
- pasport;
  - muhojirlik kartasi;
  - ixtiyoriy tibbiy sug'urta polisi;
  - turar-joy binosidan foydalanish huquqini tasdiqlaydigan hujjat nusxasi (masalan, turar-joy ijarasi shartnomasi).

### Muhojirlik qaydiga qo'yish uchun zarur:

**1.** Chet ellik fuqaroning kelish joyiga etib kelganligi borasida maxsus varaqa-bildiruvni **ikki tomonida to'ldirish** (varaqa-bildiruv bepul beriladi):

- RF IIV BB Muhojirlik masalalari Sankt-Peterburg va Leningrad viloyati bo'yicha boshqarmasi hududiy bo'limlarida;
- davlat xizmatlari ko'rsatish ko'p vazifali markazilarida (KFM-MFS);
- «Pochti Rossii» bo'limlarida.

Kelish haqidagi bildiruvni shuningdek electron tarzda rasmiylashtirish mumkin («Gosuslugi» portali orqali [www.gosuslugi.ru](http://www.gosuslugi.ru) to'ldirilgan varaqaning uzib olingan qismini keyin chop etish bilan).

Varaqa ikki qismdan iborat. U to'ldirilgach, bir qismi RF IIV BB MMBsiga beriladi, ikkinchi qismi chet ellik fuqaroda qoladi. Har ikki qismda **albatta** kelish manzili, qabul qilayotgan tomonning shaxsiy ma'lumotlari va chet ellik fuqaroning shaxsiy ma'lumotlari ko'rsatiladi. Qabul qiluvchi tomon – fuqaro varaqaga o'z imzosini chekadi.

**2.** Chet ellik fuqaro pasporti nusxasi, RF fuqarosi pasportu nusxasi (qabul qiluvchi tomon) va muhojirlik kartasi nusxasi bilan bildiruvni RF IIV BB Muhojirlik masalalari Sankt-Peterburg va Leningrad viloyati bo'yicha boshqarmasiga «Pochti Rossii» orqali **jo'nating**.

**Bildiruvni shaxsan KXM (MFS) yoki RF IIV BB Muhojirlik masalalari Sankt-Peterburg va Leningrad viloyati bo'yicha boshqarmasi bo'limiga bepul etkazish** mumkin.

**3.** RF IIV BB Muhojirlik masalalari Sankt-Peterburg va Leningrad viloyati bo'yicha boshqarmasi bo'linmasi yo «Pochti Rossii» xodimi tomonidan qabul qilinganlik haqidagi belgi qo'yilgan bildiruvning uzilgan varaqasini **olish**.

RFga kirishning vizasiz rejimida bo'lgan mamkakatlar fuqarolarining dastlabki muhojirlik qaydi chegaradan o'tgandan so'ng 90 kundan ko'p bo'lmadan muddatda rasmiylashtiriladi va **bu RFda ishlash huquqini bermaydi**.

**Ishga joylashgandan so'ng muhojirlik qaydini mehnat shartnomasi amal qiladigan muddarga muvofiq (EOI davlatlari a'zolari uchun) yoki ishlash uchun to'langan patentni muntazam uzaytirib borish zarur.**

Chet ellik fuqaro ishlash uchun olingan patent asosida o'z registrasiyasini RF IIV BB Muhojirlik masalalari Sankt-Peterburg va Leningrad viloyati bo'yicha boshqarmasi bo'linmasida muhojirlik kartasini, muhojirlik qaydiga qo'yish bildiruvini va registrasiyani uzaytirish muddatiga NDFL (patent) to'lovi kvitansiyasini ko'rsatgan holda uzaytirishi zarur.

## ISHLASH UCHUN PATENT

Osarboyjon, Moldova, Tojikiston, O'zbekiston, Ukraina fuqarolari qonuniy ishga joylashish uchun **ishlsah uchun patent olishlari zarur**.

EOI mamlakatlari (Armaniston, Belarus, Qozog'iston, Qirg'iziston) fuqarolaridan ishlash uchun patent olish talab etilmaydi. Mehnat va fuqarolik-huquqiy shartnomasi ularning RF hududida vaqtincha bo'lishlari muddatini uzaytirish uchun asos bo'ladi.

Patentda Umumrossiya kasblar tasnifiga muvofiq ixtisos ko'rsatiladi. Patent uning amal qilish muddati davomida Leningrad viloyati hududida bo'lish va ixtisosi bo'yicha ishlash huquqini beradi – har qanday ish beruvchida, jismoniy shaxsda ham, tashkilotda ham, mazkur mintaqaning har qanday nuqtasida.

Patent rasmiylashtirishga hujjat topshirish muddati – RFga kirish vaqtidan boshlab 30 kun. Unga albatta rioya etish zarur, yo'qsa, ishga patent olish uchun murojaat muddatlarini buzganligi uchun 10000 dan 15000 rublgacha jarima to'lashga to'g'ri keladi. Patentda ko'rsatilgan ixtisos bo'yicha ishlamaganligi uchun, 4000 dan 7000 rublgacha jarima chiqarilishi mumkin.

### Yodda tuting: faqat 18 yoshga to'lganlar Rossiyada ishlashlari va patent olishlari mumkin!

Har bir mintaqada patent rasmiylashtirish uchun hujjat qabul qilish huquqiga ega bo'lgan bitta tashkilot bor: Leningrad viloyatida bu Rossiya IIVning FGUP «Pasport-viza xizmati» spb.pvsmvd.ru.

RFda patent rasmiylashtirish paytida o'zining pullik xizmatini taklif etadigan ko'plab vositachilar (tashkilotlar yo alohida fuqarolar) faoliyat yuritishadi. Ehtiyot bo'ling, aldanib qolmang: **xususiy shaxslar yordamidan foydalanmang** – yurtdoshlaringiz, brigada boshliqlari, vositachilardan, hatto ular Sizga shaxsan tanish bo'lsalar-da! Aynan ular ko'pincha qalbaki hujjatlar rasmiylashtirishadi, buning uchun Sizni jarimaga tortishlari yo Rossiyadan chiqarib yuborishlari mumkin.

Patent rasmiylashtirish uchun taqdim etish zarur:

- patent berish uchun ariza (ariza varaqasi va uni to'ldirish namunasini RF IIV MMBB bo'limlarida yo [губв.мвд.рф](http://губв.мвд.рф) saytidan bepul olish mumkin);
- passport va passport nusxasi;
- fotosurat, 3x4 hajmida, rangli, silliq emas;
- muhojirlik qaydi (registrasiya)ga qo'yish bildiruvi va uning nusxasi;
- pasportning notarial jihatdan tasdiqlangan rus tilidagi tarjimai – tarjimoni bor notarial idorada qilinadi;
- kelish maqsadi «ish» deb ko'rsatilgan, kirish muhri bosilgan muhojirlik kartasi va uning nusxasi;
- Giyohvandlik va atrofdagilarga xavf tug'diradigan yuqumli kasalliklari yo'qligi, shuningdek, OIV(VICH) infeksiyasi va COVID-19 ga chalinmaganligi borasidagi nibbiy xulosa va sertifikat - tibbiy ko'rikdan o'tgach, maxsus tibbiyot muassasasida rasmiylashtiriladi; Tojikiston fuqarolari Tojikistonda rasmiylashtirilgan 086 nusxadagi ma'lumotnomani taqdim etishlari zarur.
- chet ellik fuqarolar uchun ixtiyoriy tibbiy sug'urta polisi (ITS-ДМС);
- rus tilini, Rossiya tarixi va Rossiya qonunchiligi asoslarini bilishini tasdiqlovchi hujjat: SSSR hududida 01.09.1991 yilgacha, yoki Rossiya hududida 01.09.1991 yildan so'ng o'quv yurtini bitirganligi borasidagi hujjatning asli, yo rus tilini, Rossiya tarixi va Rossiya qonunchiligi asoslarini bilish borasida testdan o'tganligiga oid sertifikat.

- patent bo'yicha soliq to'lovini (НДФЛ) to'laganligi borasidagi kvitansiya; Siz ishlash uchun patentning tayyorligi va haqiqiylikini rasmiy saytdan: [губв.мвд.рф](http://губв.мвд.рф) «chet ellik fuqarolar va fuqaroligi yo'q shaxslarning ishlash uchun ijozat va mehnat faoliyatlarini amalga oshirishdagi patentlari haqiqiylikini tekshirish» bo'limidan bilib olishingiz mumkin.

Ishlash uchun patentni rasmiylashtirish muddati – 10 ish kuni.

Olingan patent asosida muhojirlik qaydi – registrasiyaning amal qilish muddatini uzaytirmoq zarur.

Siz patent bo'yicha ishlash uchun navbatdagi har bir ish oyiga **qayd etilgan oldindan soliq to'lovi** (НДФЛ) topshirishingiz zarur.

NDFL to'langanda patent avtomatik tarzda to'lov topshirilgan muddatga ko'ra uzaytiriladi. To'lov o'z vaqtida amalga oshirilmagan holatda patentning amal qilishi kechiktirishning birinchi kundan boshlab to'xtatiladi. Diqqat qiling: oylarning hisoblanishi patent olingani borasida hujjatda ko'rsatilgan muddatdan boshlanadi! To'lov to'langan har bir ish oyi tugashiga 1 kun kechiktirilmagan topshiriladi. Soliq to'lovini har oyda va birdaniga bir necha oy oldinga topshirish mumkin.

**Albatta Siz to'laganingizni tasdiqlovchi patent to'lovi rekvizitlari va chekkarini o'zingizda saqlang!**

**Patentni olganingizdan so'ng Siz 2 oy davomida RF IIVning SPb va LV bo'yicha MMBga ish beruvchi bilan mehnat shartnomasining nusxasini topshirish haqidagi bildiruvli buyurtma xat bilan jo'natishingiz yoki shartnomani bu boshqarmaga shaxsan etkazishingiz zarur, yo'qsa, Sizing patentingizni haqiqiy emas deb hisoblashlari mumkin!**

Patent amal qilishi muddati tugagach, RF dan chiqib ketish yoki RF IIVning SPb va LV bo'yicha MMBning mehnat muhojirligi masalalari bo'yicha bo'limida patent amal qilishi muddati tugashiga 10 ish kunidan kechiktirmasdan patentni qayta rasmiylashtirish va bunda sizda quyidagilar bo'lishi kerak: kamida 1 yilgacha amal qiladigan xorijiy passport, amaldagi patent, patent uchun 12 oyga to'lahanligiga oid kvitansiya, muhojirlik kartasi va ish beruvchidan so'rov. **Ishlash uchun patentni bir necha marta qayta rasmiylashtirish mumkin.**

Siz ishlash uchun patentni uzaytirish tartibi borasida RF IIV BB Muhojirlik masalalari Sankt-Peterburg va Leningrad viloyati bo'yicha boshqarmasining rasmiy saytida batafsil bilib olishingiz mumkin – [78.мвд.рф/ms](http://78.мвд.рф/ms)

**Panent yo'qolsa yo yaroqsiz holga kelgan holatda** Siz RF IIV BB Muhojirlik masalalari Sankt-Peterburg va Leningrad viloyati bo'yicha boshqarmasining mehnat muhojirligi bo'limiga patent dublikatini berish borasida ariza bilan murojaat etishingiz mumkin. Arizaga passport va passport nusxasi, muhojirlik kartasi va uning nusxasi, NDFL (patent) to'langanligi haqidagi kvitansiya ilova qilinishi zarur.